

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**“SIVILIZATSIYALAR CHORRAHASIDAGI O‘LKA:
MARKAZIY OSIYO TARIXINING YANGI TADQIQOT
YO‘NALISHLARI VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**



15-16-MAY
2026-YIL

GULISTON
2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**«SIVILIZATSIYALAR
CHORRAHASIDAGI O‘LKA:
MARKAZIY OSIYO TARIXINING YANGI
TADQIQOT YO‘NALISHLARI VA
METODOLOGIK YONDASHUVLAR»**

**MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

(15-16-may, 2026-yil)

УДК:1
ББК:87
Т-19

«Sivilizatsiyalar chorrahasidagi o'lka: Markaziy Osiyo tarixining yangi tadqiqot yo'nalishlari va metodologik yondashuvlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani materiallari. –Guliston: Universitet, 2026. - 404 bet.

To'plamga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining Mahkamasining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida 2026 yilda Xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi» asosida **«Sivilizatsiyalar chorrahasidagi o'lka: Markaziy Osiyo tarixining yangi tadqiqot yo'nalishlari va metodologik yondashuvlar»** mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari kiritilgan.

Mas'ul muharrirlar: prof. M.T.Xodiyev, prof. Z.R.Ishanxodjayeva.

Taqrizchilar: prof. F.E.Toshboyev, prof. Q.O.Almanov, prof. S.S.Qudratov.

Tahrir hay'ati: U.Mavlyanov, O.Ayupov, Q.Abdushukurov, O.Nazarov, D.Sangirova, N.Mirzayeva, A.Sulaymanov, D.Qudratov, Sh.Ma'rufov, R.Ne'matov, I.Rayimjonov, D.Aliboyev, A.Abdumatov, S.Galiyev.

УДК:1
ББК:87

© **«Sivilizatsiyalar chorrahasidagi o'lka: Markaziy Osiyo tarixining yangi tadqiqot yo'nalishlari va metodologik yondashuvlar»** mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani materiallari.

© Guliston davlat universiteti, 2026.

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING MADANIY HAYOTDA TUTGAN O'RNINI YORITISHDA FOTOSURATLARNING MANBAVIY AHAMIYATI (1946-1991 yy)

Qodirova L.B. - PhD, dotsent, GulDU

Tarixiy manbalar tizimida vizual materiallar alohida o'rin tutadi. Fotosuratlar voqelikni hujjatli qayd etish bilan bir qatorda, uning muayyan talqinini ham o'z ichiga olgan o'ziga xos manba turi sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat rasmiy tarzda shakllantirilgan obrazlarni, balki ko'p hollarda matnli manbalarda aks etmagan kundalik amaliyotlarni ham tadqiq etish imkonini beradi.

Fotosuratlarining manbashunoslik qiymati ularning ko'p qatlamli axborot tashuvchi xususiyati bilan belgilanadi. Birinchidan, ular davrning tashqi belgilarini – kiyinish uslubi, muhit, moddiy madaniyat, kasbiy makonni aks ettiradi. Ikkinchidan, ular xotin-qizlarning ijtimoiy rollari va maqomini yoritadi: o'qituvchi, talabalar, ilmiy xodimlar, aktrisalar, kitobxonalar va madaniy muassasalar xodimlari sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, fotosuratlar kompozitsiya, tana holati, rakurs va kontekst orqali muayyan ramziy va mafkuraviy ma'nolarni ham ifoda etadi.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan, fotosuratlarining tarixiy manba sifatida o'rganilishi bir necha bosqichni bosib o'tgan. Sovet davrida ular asosan ilustrativ material sifatida qaralgan bo'lib, tanqidiy tahlil deyarli amalga oshirilmagan. Asosiy e'tibor ayollar emansipatsiyasi yutuqlarini namoyish etishga qaratilgan. Postsovet davrida esa vizual manbalarga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada oshdi. Gender tarixi va vizual tadqiqotlar doirasida fotosuratlar mustaqil manba sifatida qarala boshlandi. Bu esa reprezentatsiya, ramziy ma'nolar va vizual hamda verbal diskurslar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda qo'llanilgan fotomateriallarni tasniflash ularni bir necha guruhlariga ajratish imkonini beradi: rasmiy axborot agentliklari materiallari, davriy matbuotda chop etilgan fotosuratlar, xorijiy mualliflar ishlari va shaxsiy fotoarxivlar. Har bir guruh o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, alohida tahlilni talab qiladi.

Rasmiy fotosuratlar mafkuraviy talablarga mos obrazlarni aks ettiradi, jurnal materiallari esa vizual va matnli axborot uyg'unligi orqali ma'no ishlab chiqarish jarayonini yoritadi. Xorijiy fotosuratchilar ishlari «tashqi nigoh» sifatida ahamiyatga ega bo'lsa, shaxsiy arxivlar kundalik hayot va individual tajribani tiklash imkonini beradi.

Metodologik jihatdan fotosuratlarini tahlil qilish kompleks yondashuvni talab etadi. Manbashunoslik tahlili manbaning kelib chiqishi va funksiyasini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, vizual tahlil tasvirning kompozitsion va ramziy jihatlarini ochib beradi. Kontent-tahlil takrorlanuvchi syujet va obrazlarni aniqlash imkonini bersa, diskurs-tahlil mafkuraviy mazmunni yoritadi. Qiyosiy metod esa turli manbalarni solishtirish orqali ularning o'zaro farqlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, sovet davrida fotosuratlar ko'p qirrali funksiyalarni bajargan. Bir tomondan, ular muayyan voqea, shaxs va jarayonlarni qayd etuvchi hujjat vazifasini o'tagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda belgilangan ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu jihatdan, 1946–1991 yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning madaniy va ta'lim sohasidagi rolini o'rganishda fotosuratlarining manbaviy ahamiyati beqiyos. Madaniy-ma'rifiy sohalarda faoliyat yuritgan xotin-qizlar tasvirlangan fotosuratlar davlatning «xotin-qizlar masalasi» bo'yicha siyosatining vizual ifodasini anglash imkonini beradi.

Jumladan, ta'lim sohasiga oid fotosuratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda xotin-qizlar ko'pincha o'qituvchi hamda o'quvchi, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari hamda talabalari, ilmiy xodimlar sifatida tasvirlanib, davlatning ayollarni ta'lim va fan sohasiga keng jalb etish siyosatini vizual tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Xususan, Moskva, Leningrad va boshqa markaziy shaharlardagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olishga yo'l olgan o'zbek xotin-qizlari alohida tilga olinib, ularning suratlari jurnal muqovalarida chop etilgan [1: 18-19]. Ushbu suratlar nafaqat ilm izlab yo'lga otlangan talabgorlar, balkim xotin-qizlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlarning ramziga aylangan.

Toshkent to'qimachilik instituti direktori, texnika fanlari doktori, keyinchalik akademik unvoniga sazovor bo'lgan Maqsuda Xojinova (1912-1981) haqidagi maqolava unga ilova qilingan surat [2] sovet davrida «ilmi va faol ayol» obrazining qanday vizual konstrutsiya qilinganini namoyon etadi.

Avvalo, fotosuratning kompozitsion tuzilishiga e'tibor qaratish lozim. Surat markazida Maqsuda Xojinova laboratoriya muhitida tasvirlangan bo'lib, uning qo'lidagi tola namunasi, orqa



fonda joylashgan texnik o'lchov asboblari va ish jarayoni ilmiy-tadqiqot faoliyati muhitini yaratadi. Bu elementlar tasodifiy emas, balki ayolning yuqori malakali mutaxassis va olim sifatidagi maqomini vizual jihatdan ta'kidlash vazifasini bajarishi lozim bo'lgan. Fotosuratning yana bir muhim jihati – unda ayolning tashqi qiyofasi va ish jarayonining uyg'unlashtirilganidir. M.A. Xojinova ilm-fan sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassis sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, uning tashqi ko'rinishida ayollikka xos estetik jihatlar ham saqlangan. Bu holat sovet vizual madaniyatidagi ikkilamchi talab – ya'ni ayolning ham kasbiy, ham «an'anaviy» ayollik xususiyatlarini saqlab qolishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi.

Bunday tasvirlar «ma'rifatli sovet ayoli» obrazini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, vizual tahlil ushbu obrazlar ko'p hollarda normativ xarakterga ega bo'lib, real holatdan ko'ra ideal modelni aks ettirganini ko'rsatadi.

Madaniyat sohasiga oid fotosuratlar xotin-qizlarning turli ijtimoiy rollarini qamrab oladi: teatr va kino aktrisalari, xonanda, raqqosa, dirijyor, rassom, klub muassasalari xodimlari va h.k. Ushbu tasvirlar sotsialistik madaniyat qurilishida ayollarning faol ishtirokini namoyon etuvchi mafkuraviy paradigma doirasida shakllangan. Xususan, 1928 yildan ishlay boshlagan va o'sha vaqtdan buyon xotin-qizlar klubi nomini olgan Respublika Madaniyat uyini bezatishda ishlatilgan stendlarda sovet xotin-qizlarining fan-texnikani, qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi faol ishtirokini aks ettiruvchi suratlari o'rin olgan. 1956 yilda bu stendlarda ilmiy muassasalar, o'quv yurtlari va madaniy-oqartuv muassasalarida ishlayotgan 2,5 mln nafar xotin-qizning faoliyati, o'zbek xotin-qizlaridan 13 tasi fan doktori ekanligi, 400 ayolning fan nomzodi bo'lgani, san'at xodimlarining 40% ning xotin-qizlar ekanligi, shulardan 23 tasining O'zbekiston xalq artisti, 45 tasining Respublikada xizmat ko'rsatgan artist, 2 tasining SSSR xalq artisti ekanligini aks ettirgan. Stendlarda opera, dramatik, xoreografiya san'ati sohasida ajoyib ustalarning – Stalin mukofoti laureatlari degan faxriy unvon olgan Soraxon Eshonto'raeva, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboeva, Galiya Izmaylovalarning foto suratlari joy olgan.

Shu bilan birga, ayrim fotosuratlar rasmiy diskursdan tashqaridagi kundalik madaniy amaliyotlar va norasmiy munosabatlarni ham yoritish imkonini beradi. Jumladan, O'zbekiston KFFH MAdA saqlanayotgan suratda O'zbekiston ayollari orasidan yetishib chiqqan ilk huquqshunos olim, yuridik fanlari doktori, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Adliya ministri X.S. Sulaymonova oilasi bilan tasvirlangan bo'lib, ushbu surat uning ijtimoiy kelib chiqishiga ham urg'u bergani holda, yuqori lavozimda faoliyat olib borishiga qaramasdan, mehribon farzand va ona bo'lib qolaverganligini aks ettirishi lozim bo'lgan.

Fotosuratlarini tarixiy manba sifatida qo'llashda ularning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Ko'p hollarda fotosuratlar qat'iy nazorat va senzura sharoitida yaratilgan bo'lib, bu ularning sahnalashtirilganligi va tanlangan holatlarni aks ettirishini belgilaydi. Rasmiy fotosuratchilar, odatda, mafkuraviy talablarga mos ravishda ish yuritganlar, bu esa standartlashtirilgan va ideallashtirilgan obrazlarning ustuvorligiga olib kelgan. Natijada

muvaffaqiyat, faollik va farovonlikni aks ettiruvchi syujetlar ustunlik qilgan, muammoli jihatlar esa kadrдан tashqarida qolgan.

Xulosa. Shunday qilib, fotosuratlar xotin-qizlarning madaniy va ta'lim sohasidagi rolini o'rganishda muhim manba bo'lib, ular orqali nafaqat ijtimoiy jarayonlar, balki ayollar obrazining jamiyat ongida shakllanish mexanizmlari ham ochib beriladi. Manbashunoslik nuqtai nazaridan fotosuratlar bir vaqtning o'zida ham hujjatli, ham mafkuraviy xususiyatga ega. Hujjatlilik jihati shundaki, suratda muayyan tarixiy shaxs, uning kasbiy muhiti va faoliyat sohasi aks etgan. Shu bilan birga, sovet davlatining xotin-qizlar siyosati doirasida shakllangan mafkuraviy diskursning bir qismi hisoblanadi. Chunki sovet vizual madaniyatida ayol olimlarning fotosuratlari ko'pincha mamlakatda gender tengligi ta'minlanganini ko'rsatuvchi dalil sifatida qo'llanilgan.

Bu kabi fotosuratlar tahlili orqali sovet davrida ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar obrazini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash mumkin. Chunki vizual va matnli manbalar nafaqat muayyan shaxs faoliyati haqida axborot beradi, balki sovet modernizatsiyasi sharoitida ayollarning ijtimoiy maqomi qanday representatsiya qilinganini ham ko'rsatadi. Shu ma'noda, u vizual representatsiya, gender siyosati va mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон хотин-қизлари. – 1954. – №9. Орқа муқова; Гурго И. Улар Москвада ўқийдилар // Ўзбекистон хотин-қизлари. – 1955. – №5. – Б.18-19.
2. Усмонова Ф., Юсупова Н. Фан доктори // Ўзбекистон хотин-қизлари. – 1958. – №9. – Б.9-10.
3. Клуб муассасаларида хотин-қизлар ўртасида мадани-оммавий ишларни ташкил этиш. – Т.: 1956. – Б. 3

КУЛЬТУРНЫЕ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ СОГДИЙЦЕВ СО СТРАНАМИ ВОСТОКА И ЗАПАДА

Ваисова Н.А. - PhD, доцент, НУ Уз имени Мирзо Улугбека

Древняя Согдиана, является одной из крупных историко-культурных областей, расположенных между Амударьёй и Сырдарьёй. Она всегда оказывала сильное влияние на соседние государственные образования и играла весьма важную роль в их жизни. Историки древнего Востока называли эту страну «сердцем Центральной Азии». В центре этой историко-культурной области располагался Самарканд- крупнейший политико-административный центр Согда, ядром которого являлся бассейн Зарафшана. Согдийская проблематика имеет решающее значение для понимания исторического процесса по всей Средней Азии, поскольку Согд - это центральная область, а в VI-VIII вв. и наиболее развитая часть этого обширного региона, в котором согдийцы были в наибольшей степени народом горожан. Древний Согд исторически делился на три части: Самаркандский Согд, расположенный в среднем и верхнем течении реки Зарафшана, Бухарский Согд, расположенный в нижнем её течении и Кашкадарьинский Согд, расположенный в долине реки Кашкадарьи. О согдийском культурном преобладании на протяжении раннего средневековья говорится в ряде обобщающих работ. Экономическая и культурная деятельность согдийцев распространилась далеко за пределы собственно Согда, основными землями которого были территории по р. Зеравшан с центром в Самарканде. В более широком смысле слова в Согд включались и владения Кеш и Нахшеб в долине Кашка-Дарьи. Наряду с Самаркандским Согдом источники упоминают Бухарский, который, видимо, зависел от Самаркандского в начале VII в [1].

Так, самой заметной общиной переселенцев в Западном Китае, были согдийцы чья родина находилась в Самарканде и окружающих его городах нынешнего Узбекистана. Их колонии сформировались практически в каждом китайском городе, где согдийские старосты-сабао надзирали над делами в местных общинах. Часть согдийских переселенцев представляли купцы: их персонажи появляются в литературных произведениях настолько часто, что возник навязчивый образ богатого купца. Согдийские купцы и на самом деле занимались ювелирным изделиями и драгоценными камнями, которые отличались двумя товарными преимуществами: они стоили дорого, а весили мало. Только вот факт

<i>Касенова А.Д., Сатулганов Ж.А., Алибай Б.Е. Alibekov U.Y.</i>	АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ СВЯТИЛИЩА УШКЫЗ (по материалам полевых исследований 2025 года).....	205
<i>Ma'rufov Sh.K.</i>	O'ZBEK XONLIKLARI SAVDO-KARVON YO'LLARI VA ULARNING ETNOMADANIY JARAYONLARGA TA'SIRI.....	209
	SIRDARYO MINTAQASIDA ILK DAVLATCHILIK VA URBANIZATSION JARAYONLARNING VUJUDGA KELISHI.....	211
<i>Davronov Z., Zaripov A.R. Abdualimova Z.M., Raimjonov I.X. Mamudova H.A. Sa'dullayeva U.</i>	SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA TA'LIM TIZIMI.....	214
	MIRZACHO'LNI O'ZLASHTIRILISHIDA TARG'IBOT MASALALARINING VIZUAL TASVIRLARDA YORITILISHI.....	215
	IMOM AL-BUXORIY HAYOTI HAQIDA YANGI QARASHLAR.....	217
	NIZOMULMULKNING «SIYOSATNOMA» ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDAGI AHAMIYATI.....	219
<i>Ma'rufov Sh.K., Odilova H.H. Ergasheva B.G'.</i>	SHARQDAGI ILK AYOL PARLAMENT RAHBARLARDAN BIRI YODGORA NASRIDINOVA FAOLIYATI.....	221
	QIZ BOLA TARBIYASIDA QADRIYATLARNING O'RNI: TARIXSHUNOSLIKDA QIZ BOLA TARBIYASI MASALASI.....	223
<i>Ma'rufov Sh.K., Tursunaliyeva M.O. Isomiddinova S. J.</i>	USTRUSHONA O'RTA ASR SAYYOHLARI NIGOHIDA.....	225
	TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRIDA SHAHARSOZLIK VA ME'MORCHILIK.....	226
<i>Umarov I.I.</i>	XIII-XIV ASRLARDA MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA SODIR BO'LGAN ETNOSIYOSIY JARAYONLAR.....	228
<i>Ma'rufov Sh.K., Erkinov A.R. Mirzayeva N.J., O'rozova M.X. Islomova M.R.</i>	SAMARQAND – YER YUZINING POYTAXTI.....	230
	O'ZBEKISTONDA YER-SUV MUNOSABATLARINING INSTITUTIONAL TRANSFORMATSIYASI: STRATEGIK ISLOHOTLAR VA SAMARADORLIK TAHLILI.....	232
	O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA AYOLLAR TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	235
<i>Алиязарова Д.В.</i>	ПЕРИОДИЧЕСКАЯ ПЕЧАТЬ КАК ОБЪЕКТ ИСТОРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В КОНТЕКСТЕ НАУКИ И ИННОВАЦИЙ.....	236
<i>Mansurov U.N.</i>	MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASIDA MUG' TOG'I SUG'D YOZMA YODGORLIKLARINI TUTGAN O'RNI.....	239
<i>Shodmonqulov D.M.</i>	QO'NG'IROTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI ALOQALARI: TARIXIY-HUQUQIY VA SIYOSIY TAHLIL.....	241
<i>Атаджанова С.М.</i>	ИЗ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ СПОРТА.....	244
<i>Axrarova A.N.</i>	SOVET DAVRIDA VOYAGA YETMAGANLARGA OID SIYOSATNI MATBUOT ORQALI MUZEY EKSPOZITSIYASIDAINTERPRETATSIYA QILISH. («YOSH KUCH» VA «YOSH KOLXOZCHI» GAZETALARI MISOLIDA).....	247
<i>Babayev R.K.</i>	USTRUSHONANING IJTIMOY-SIYOSIY HOLATI BO'YICHA YONDASHUVLAR VA ULARNING TAHLILI.....	249
<i>Xoljigitov A.</i>	O'ZBEKXON DAVRIDA OLTIN O'RDA DAVLATINING HARBIY-SIYOSIY MUSTAHKAMLANISHI VA MARKAZLASHUVI.....	252
<i>Suyunboyev B.D.</i>	XVII-XIX ASRLARDA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING IJTIMOY IQTISODIY TARIXI.....	253
4-shu'ba: YANGI O'ZBEKISTONDA TARIXSHUNOSLIK VA ZAMONAVIY METODOLOGIYALAR: RAQAMLI TARIX, PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR HAMDA INTERDISCIPLINAR TADQIQOTLAR		
<i>Ишанходжаева З.Р.</i>	ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	255
<i>Юн С.М.</i>	ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА В НОВЕЙШИЙ ПЕРИОД.....	257
<i>Shakiyeva A.M., Suyuberdiev A.A. Qodirova L.B.</i>	COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHER TRAINING.....	259
	O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING MADANIY HAYOTDA TUTGAN O'RNINI YORITISHDA FOTOSURATLARNING MANBAVIY AHAMIYATI (1946-1991 yy).....	262
<i>Вайсова Н.А.</i>	КУЛЬТУРНЫЕ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ СОГДИЙЦЕВ СО СТРАНАМИ ВОСТОКА И ЗАПАДА.....	264